

# IJODKOR YOSHLAR UCHUN KASTING BO'LIB O'TDI



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi tashabbusi bilan O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasining "Yoshlarni madaniyat, san'at sohalariga keng jalb qilish va yoshlarni axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakillantirish" ular o'rtasida "Besh muhim tashabbus" doirasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida "BS AKADEMY" tomonidan 15-sonli bolalar musiqa va san'at mакtabida kasting o'tkazildi.



Unda tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining jurnalistikaga va aktyorlikka qiziqishi yuqori yoshlari ishtiroy etdilar.

Kasting davomida jurnalistik (sahna nutqi, televideniya, ijtimoiy tarmoqlarda media, tomosha materiallar tayyorlash hamda jurnalistik faoliyat olib borish), aktyorlik mahorati (sahna madaniyati, estrada xonandaligi, kino va televideniya rejissyorligi) yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratildi.

## [\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2022-03-10 08:18:15